

MAHSULOT TONNARXINI TAHLIL QILISH**Kadirov Elyor Gafurovich***Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi**Jamoat Salomatligi texnikumi, bosh o'qituvchi*

Annotatsiya: Ushbu maqola sizga mahsulot tonnaxi haqida tushuncha ma'lumotlar beradi. Mahsulot tannaxi korxonalar xo'jalik faoliyatini ifodalovchi sifat ko'rsatkichi bo'lib, korxonalar faoliyatining barcha jihatlarini, ya'ni ishlab chiqarish va moliyaviy tomonlarini aks ettiradi va ularning ish samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'z: Moliya , biznes loyiha, daromad , strategiya, investitsiya , potent , hamkorlik .

Hozirgi sharoitida iqtisodiyot oldiga qo'yilgan vazifalardan biri uning samaradorligini ko'tarishdan iboratdir. Mahsulot tannaxi korxonalar xo'jalik faoliyatini ifodalovchi sifat ko'rsatkichi bo'lib, korxonalar faoliyatining barcha jihatlarini, ya'ni ishlab chiqarish va moliyaviy tomonlarini aks ettiradi va ularning ish samaradorligini ko'rsatadi. Mahsulot tannaxi deganda, mahsulot ishlab chiqarish, sotish va korxona moliyaviy faoliyati bo'yicha barcha xarajatlarining pul orqali ifodalanishi tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot tannaxini tahlil qilishning ahamiyati turli xildagi mulkchilik shakllarida ish yuritayotgan korxonalar uchun beqiyosdir, zero, ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida to'la ma'lumotlarga ega bo'lmasdan turib ishlab chiqarishni tashkil qilish va samarali boshqarish mumkin emas. Mahsulot tannaxini arzonlashtirish jonli mehnat hamda buyumlashgan mehnatni tejashni aks ettiradi, foydaning ortishini ta'minlaydi, ulgurji va chakana narxlarni arzonlashtirish imkonini yaratadi. Mahsulot tannaxini arzonlashtirishning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat: boshqaruv usullari, ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilishni, xo'jalik hisobini takomillashtirish, ishlab chiqarishning asosiy fondlaridan foydalanishni yaxshilash, moddiy resurslardan tejabtergab foydalanish, ishlab chiqarishni boshqarish va unga xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish, xo'jasizlikka qarshi kurashish kabilar.

Mahsulot tannaxini tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: korxona xo'jalik faoliyati davomida yuzaga keladigan xarajatlar tarkibini aniqlash, mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq haqiqiy xarajatlarning reja va o'tgan yilgi xarajatlarga nisbatan bo'lgan tejam yoki o'rtacha xarajatga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida material va mehnat resurslaridan to'g'ri foydalanish ustidan nazorat olib borish, bir so'mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajatlarning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, mahsulot tannaxining xarajat unsurlari va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha tarkibini tahlil qilish, tannaxini

arzonlashtirish rezervlarini aniqlash kabilar. "Xarajatlar tarkibi to'g'risida...."gi Nizomga muvofiq hamma xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

- mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar;
- ishlab chiqarish tannarxiga qo'shilmaydigan, ammo asosiy faoliyatdan olinadigan foydada hisobga olinadigan davr xarajatlariga qo'shiladigan xarajatlar;
- korxona umumxo'jalik faoliyatidan olinadigan foyda yoki zararlarni hisobga olinadigan, korxona moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlar;
- soliq to'lagunga qadar foyda yoki zarar hisob-kitobida hisobga olinadigan tasodifiy zararlar.

Shunday qilib, xarajat moddalari quyidagicha guruhlanadi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi: a) to'g'ri va egri material xarajatlari; b) to'g'ri va egri mehnat xarajatlari; v) ishlab chiqarish ahamiyatidagi ustama xarajatlar qo'shilgan holda boshqa to'g'ri va egri xarajatlar.

2. Davr xarajatlari: a) sotish bo'yicha xarajatlar; b) ma'muriy xarajatlar; v) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar: a) foizlar bo'yicha xarajatlar; b) chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs farqlari; v) qimmatli qog'ozlarga sarflangan mablag'larni qayta baholash; g) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

4. Tasodifiy zararlar.

Ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementlari va kalkulyatsion moddalari bo'yicha o'rganish quyidagicha farqlanadi, ya'ni, bo'limlar va korxona bo'yicha jam'i xarajatlar faqat iqtisodiy elementlari bo'yicha o'rganiladi, mahsulotlar turi va turkumi bo'yicha esa ishlab chiqarish xarajatlari kalkulyatsiya moddalari asosida ko'rib chiqiladi. Tahlil etishda, ishlab chiqarish xarajatlarning jam'i tarkibi bo'yicha o'zgarishlarni mutlaq va nisbiy jihatdan o'rganiladi. Nisbiy jihatdan o'rganishda, har bir turkum xarajat moddasi yoki elementining jam'i ishlab chiqarish xarajatlari tarkibidagi salmog'iga baho beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboyeva Sh. A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. -T.:Sano-standart, 2017.
2. Shoalimov A.X., va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. -T.:Lessonpress, 2016.
3. Шеремет А.Д., Хорин А.В. Теория экономического анализа. Учебник. -М.: Инфра-М, 2019.